XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 28-sentabr VII-38-109-5-0-K/26 Navoiy viloyati

Navoiy va Zarafshon shaharlari jamoat transporti tizimida yangi, qo‘shimcha va rag‘batlantiruvchi tariflarni joriy qilish hamda yo‘lkira haqini to‘lashda elektron to‘lov tizimidan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi 419-I-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 30-dekabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 1109-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-son, 2024-yil 25-martdagi “Jamoat transportini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-139-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi 273-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida yo‘lovchilar aylanmasini va umumiy foydalaniladigan avtomobil va elektr transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro yo‘nalishlarda hamda soatlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar sonini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomi”ga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2026-yil 2-iyuldagi 2/898-sonli xatini va viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 30-dekabrdagi 01-12/20-18-32/1183-sonli va 2026-yil 11-iyundagi 01-12/20-17-32/417-sonli xulosalari hamda viloyat Transport boshqarmasining 2026-yil 24-fevraldagi 01-10/37-son xati, xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 10-avgustdagi DKQ 03-01/94-26-sonli qarori hamda bildirilgan taklif, fikr-mulohazalarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari viloyat Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Navoiy viloyati Transport boshqarmasi boshlig‘i B.Raximovning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Navoiy va Zarafshon shaharlarining jamoat transporti avtobus yo‘nalishlarida to‘lovlar shaffofligini ta’minlash, yo‘lkira to‘lovlari yig‘ilishida bosqichma-bosqich inson omilini kamaytirish, elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishni rag‘batlantirish va avtomatlashtirilgan (elektron) to‘lov tizimini rivojlantirish maqsadida qatnovlarni amalga oshirish uchun yo‘lkira haqining cheklangan tariflari1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

shahar yo‘lovchi transporti (avtobuslar)da yo‘lovchilar tomonidan hajmi 60 sm x 40 sm x 20 sm va og‘irligi 20 kilogrammdan ortiq bo‘lmagan qo‘l yuki hamda musiqa asbobini, 150 santimetrgacha uzunlikdagi buyumlarni, shuningdek qafasga solingan mayda hayvonlar va parrandalar, aravacha (bolalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va boshqalarning aravachalari)ni, mayda bog‘dorchilik inventarlari, bolalar chanalarini o‘zi bilan birga bepul olib yurish huquqiga ega.

Shahar yoʻnalishlaridagi avtobuslarda 7 yoshgacha boʻlgan bolalarni tashish uchun yoʻl haqi talab etilmaydi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi 273-son qaroriga asosan:

shahar yo‘lovchi transporti (avtobuslar)da qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan tarif rejalarini hisoblash uchun cheklangan tarif – 1 600 (bir ming olti yuz) so‘m (QQS bilan).

yo‘lovchilarning shahar yo‘lovchilar transporti (avtobus)dan foydalanishlarida qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan tarif rejalari 2-ilovaga;

elektron to‘lov tizimlaridan foydalanilgan holda bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transporti (avtobuslar)dan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli va bepul tarif rejalari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-avgustdagi VM-29/25-71-sonli bayoniga asosan Navoiy shahri yoʻnalishlaridagi avtobus va elektrobuslar salonida yoʻl haqqini naqd pulda olish amaliyotidan voz kechilsin va yoʻl haqqini faqat elektron tarzda qabul qilish amaliyoti joriy etilsin.

6. Transport boshqarmasi (B.Raximov) mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, o‘n kun muddatda qonun hujjatlariga muvofiq yo‘lovchilarni tashuvchi tegishli tashkilot va korxonalar bilan tuzilgan oferta (brutto) shartnomalariga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

7. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Sh.Raubayeva) mazkur qarorni “Do‘stlik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetalarida e’lon qilinishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran 15 (o‘n besh) kun o‘tgach kuchga kiradi.

9. Mazkur qarorning bajarilishini ta’minlash viloyat hokimi o‘rinbosari (E.Niyozov) hamda nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Isoqov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

ALIYEV
G‘OFIR
QUVATOVICH

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2026-yil 28-sentabrdagi
VII-38-109-5-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Navoiy va Zarafshon shaharlarining jamoat transporti avtobus yo‘nalishlarida to‘lovlar shaffofligini ta’minlash, yo‘lkira to‘lovlari yig‘ilishida bosqichma-bosqich inson omilini kamaytirish, elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishni rag‘batlantirish va avtomatlashtirilgan (elektron) to‘lov tizimini rivojlantirish maqsadida qatnovlarni amalga oshirish uchun yo‘lkira haqining CHEKLANGAN TARIFLARI

T/r	**Tariflarning to‘lov usullari**	**Tarif rejalarining narxi** (so‘m) *(QQS bilan)*	**Tarif rejalarining narxi** (so‘m) *(QQS siz)*
1.	shahar jamoat transportlari avtobusda naqd pulda to‘lov amalga oshirilganda bir nafar yo‘lovchi uchun bir martalik yo‘lkira haqi	3 000	2 679
2.	shahar jamoat transportlari avtobusda elektron shaklda (yagona transport kartalari (ATTO), bank kartalari va boshqa elektron to‘lov turlari) orqali to‘lovlar amalga oshirilganda bir nafar yo‘lovchi uchun bir martalik rag‘batlantiruvchi yo‘lkira haqi	2 000	1 786
3.	shahar yo‘lovchi transporti (avtobuslar)da hajmi 60 sm x 40 sm x 20 santimetrdan 100 sm x 50 sm x 30 santimetrgacha bo‘lgan va uzunligi 150 santimetrdan 200 santimetrgacha bo‘lgan buyumlarni hamda o‘lchamidan qat’iy nazar, og‘irligi 20 kilogrammdan ortiq bo‘lgan bagajni olib yurish uchun yo‘lkira haqi	3 000	2 679

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2026-yil 28-sentabrdagi
VII-38-109-5-0-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan TARIF REJALARI

T/r	**Tarif rejalarini nomlanishi**	**Tarif turlari** (kun)	**Tarif turidagi qatnovlar soni**	**Tarif rejalarining narxi** (so‘m) *(QQS bilan)*
1.	“**AV**” avtobus – aholi uchun*	1 kunlik	5	6 000
		5 kunlik	22	27 000
		7 kunlik	31	37 000
		10 kunlik	44	54 000
		15 kunlik	66	81 000
		20 kunlik	88	108 000
		30 kunlik	130	160 000
		90 kunlik	390	480 000
		180 kunlik	780	960 000
		365 kunlik	1582	1 948 000
3.	“**N**” avtobus – pensionerlar va nogironlar uchun**	1 kunlik	5	3 000
		5 kunlik	22	13 500
		7 kunlik	31	18 500
		10 kunlik	44	27 000
		15 kunlik	66	40 500
		20 kunlik	88	54 000
		30 kunlik	130	80 000
		90 kunlik	390	240 000
		180 kunlik	780	480 000
		365 kunlik	1582	974 000
4.	“**T**” avtobus – talabalar uchun**	1 kunlik	5	3 000
		5 kunlik	22	13 500
		7 kunlik	31	18 500
		10 kunlik	44	27 000
		15 kunlik	66	40 500
		20 kunlik	88	54 000
		30 kunlik	130	80 000
		90 kunlik	390	240 000
		180 kunlik	780	480 000
		365 kunlik	1582	974 000

5.	“**O‘**” avtobus – o‘quvchilar uchun**	1 kunlik	5	3 000
		5 kunlik	22	13 500
		7 kunlik	31	18 500
		10 kunlik	44	27 000
		15 kunlik	66	40 500
		20 kunlik	88	54 000
		30 kunlik	130	80 000
		90 kunlik	390	240 000
		180 kunlik	780	480 000
		365 kunlik	1582	974 000
6.	“**B**” bepul – O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq transportdan bepul foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar uchun***	0	0	0

Izoh:

* Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: X*1600-23%;

** Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: X*1600-23%-50%, bunda:

X – transportda qatnovlar soni;

2000 so‘m – yo‘l chiptalarini hisoblash uchun qabul qilingan cheklangan tarif.

23 % – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi “Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2012-yil 17-sentabrdagi 273-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 643-sonli qarorining ilovasiga muvofiq.

1600* Qatnovlar soni – 23% (to‘liq qiymatdan chegirish miqdori);

50 % – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi “Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2012-yil 17-sentabrdagi 273-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 643-sonli qarorining ilovasiga muvofiq.

1600* Qatnovlar soni – 50% (to‘liq qiymatdan chegirish miqdori).

*** Shahar yo‘lovchilar transportidan (taksidan tashqari) bepul foydalanish huquqi.

- 1941—1945-yillardagi urush qatnashchilari jumlasidan boʻlmish harbiy xizmatchilar;

- 1941—1945-yillardagi urush nogironlari va urushning I guruh nogironiga hamrohlik qiluvchi shaxs;

- 1941—1945-yillardagi urush davrida front ortida fidokorona mehnati va benuqson harbiy xizmati uchun orden va medallar bilan taqdirlangan shaxslar;

- Afgʻoniston Respublikasida va boshqa mamlakatlarning hududidagi jangovar harakatlarda qatnashgan sobiq baynalminalchi jangchilar jumlasidan boʻlmish fuqarolar;

- Haqiqiy muddatli harbiy xizmatni oʻtayotgan harbiy xizmatchilar va kontrakt boʻyicha oddiy askarlar hamda serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar;

- Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshdan kechirgan shaxslar;

- Oʻzgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi boʻlgan shaxslar, shuningdek ularni kuzatuvchi shaxs*;

*Nogironligi boʻlgan shaxslar uchun va nogironligi boʻlgan koʻzi ojiz shaxsga safarlarda hamrohlik qiluvchi shaxslar.

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2026-yil 28-sentabrdagi
VII-38-109-5-0-K/26 -son qaroriga
3-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transportini isloh qilish to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qaroriga asosan yo‘lovchilarning shahar yo‘lovchilar transporti – avtobusdan foydalanishlarida to‘lovlar transport kartalari (ATTO) orqali amalga oshirilganda almashish TARIF REJALARINING NARXLARI*

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Almashish turlari	Tarif rejalarining narxi (so‘m) *(QQS bilan)*	Tarif rejalarining narxi (so‘m) *(QQS siz)*
1.	1 soatlik A+A+A	birinchi avtobusda to‘lov	2 000	1 786
		ikkinchi avtobusda to‘lov	1 000	893
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	0	0

Izoh:

**Mazkur tarif rejalarining narxi faqat bir transport turi uchun va bir soat davomida yagona transport kartalari (ATTO) orqali to‘lov amalga oshirilganda qo‘llaniladi.*